Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

1. Malikov T.S. Moliya: amaliy jihatlar (2-qism). O‘quv qo‘llanma. Toshkent – «Nihol print» OK – 2022. 364 bet.
2. Hahn Christopher. Finanzierung von Start-up-Unternehmen. Praxisbuch für erfolgreiche Gründer: Finanzierung, Besteuerung, Investor Relations. Herausgeber.trustberg LLP. Berlin, Deutschland.Berlin im Sommer 2018.-304 S.
3. Ataniyozov J.H. – O‘zbekistonda integrasiyalashgan tuzilmalarni shakllantirishning istiqbolli yo‘nalishlari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 1, fevral, 2018 yil. 5-20 b.
4. Shoha’zamiy Sh.Sh. Tizimli moliya ijiniringi. Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2012.-796 b.
5. Туйчиев, А. Г. (2019). Международные и региональные тенденции и проблемы финансирования инноваций и их трансферта в малый бизнес. Финансовый менеджмент, (5), 62-71.

MILLIY HISOBCHILIK TIZIMIDAGI ASOSIY INSTITUTSIONAL SEKTORLAR VA HISOBLAR

Abdaminova Pokiza
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti
3-bosqich talabasi
abdaminovapokizaxon@gmail.com

Annotatsiya:Ushbu maqolada “Milliy hisobchilik tizimi”, milliy hisobchilik tizimidagi asosiy institutsional sektorlar va milliy hisobchilik tizimidagi hisoblar haqida so‘z yuritilgan hamda ularning turlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy hisobchilik tizimi, milliy pul birligi, milliy hisobchilik tizimidagi institutsional sektorlar, milliy hisobchilik tizimidagi asosiy hisoblar, davlat sektori, korxona (tadbirkorlik) sektori, Off-budjet fondlar (kassalar), xususiy (maxsus) kassalar, davlat byudjeti.

ОСНОВНЫЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ СЕКТОРА И СЧЕТА В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА

Аннотация: В этой статье рассматриваются "национальная система бухгалтерского учета", основные институциональные сектора в национальной системе бухгалтерского учета и счета в национальной системе бухгалтерского учета, а также их типы.

Published: 24.05.2025
Cite this article: Abdaminova Pokiza (2025). Milliy hisobchilik tizimidagi asosiy institutsional sektorlar va hisoblar. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/343
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Ключевые слова: Национальная система бухгалтерского учета, национальная валюта, институциональные сектора в национальной системе бухгалтерского учета, основные счета в национальной системе бухгалтерского учета, государственный сектор, сектор предприятия (предпринимательства), внебюджетные фонды (кассы), частные (специальные) кассы, государственный бюджет.

KEY INSTITUTIONAL SECTORS AND ACCOUNTS IN THE NATIONAL ACCOUNTING SYSTEM

Annotation:this article talks about the “national accounting system”, the main institutional sectors in the national accounting system and accounts in the national accounting system, and cites their types.

Keywords: national accounting system, national monetary unit, institutional sectors in the national accounting system, basic accounts in the national accounting system, public sector, enterprise (entrepreneurial) sector, Off-budget funds (cash desks), private (special) cash desks, public budget.

KIRISH

Milliy hisoblar tizimi – bu iqtisodiy faoliyat natijalarini makrodarajada qayd etish va uni tahlil qilish uchun foydalanadigan, o’zaro bir biriga bog’liq ko’rsatkichlar, klassifikatsiyalar va schyotlar tizimidir. Bu tizimda mamlakatdagi pul birligini va hisob-kitoblarni boshqarish uchun qo‘llaniladigan qonun, tartib va protseduralar jamlanadi. Bunday tizimlar mamlakatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, moliyaviy transparantlikni ta’minlash va milliy valyutaning istiqomatini saqlash maqsadida ishlab chiqiladi.

ASOSIY QISM:

Milliy hisobchilik tizimidagi asosiy institutsional sektorlar va hisoblar quyidagilardir:

1. Davlat sektori: Bu sektor davlat tomonidan boshqariladigan va moliyaviy maqsadlarga yo‘naltirilgan ishlar uchun xarajatlar va daromadlarni hisobga oladi. Bu shu jumladan, budjet tashkil etish, moliyaviy to‘lovlar va investitsiyalar hisoblari shu jumladan kiritiladi.

2. Korxona (tadbirkorlik) sektori: Bu sektor korxonalarning faoliyatini tushunarliroq ko‘rsatish, daromadlarni olingan mablag’lar bilan solish, xarajatlarni rejalashtirish va solishni o‘z ichiga oladi.

3. Off-budjet fondlar (kassalar): Bu sektor pension, ijtimoiy himoya, sug’urta va boshqa maqsadlar uchun jamoat tomonidan yig’ilgan mablag’larni hisobga oladi.

4. Xususiy (maxsus) kassalar: Shu kategoriyaga mansub bo‘lgan sub’yektivsiz fondlar (kassalar), jismoniy shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan boshqarilishi mumkin bo‘lgan fondlarning mablag’lari bilan amalga oshiriladi.

Bu institutsional sektorlar Milliy hisobchilik tizimida bo‘shqa bosqichlarda ko‘rsatilmagan harakatlarni hamda moliyaviy xolatni nazorat qilishda juda muhim ahamiyatga ega.

Milliy hisobchilik tizimidagi asosiy institutsional sektorlar o‘rtasida davlat, korxona va xususiy tashkilotlar kiritiladi. Davlat sektori, davlat byudjeti, soliq to‘lovlari va boshqa moliyaviy operatsiyalarni boshqaradigan davlat tashkilotlarini o‘z ichiga oladi. Korxona sektori esa, korxonalar va boshqaruv tashkilotlari orasidagi moliyaviy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Xususiy tashkilotlar esa, jismoniy shaxslar yoki jamoat a’zolari tomonidan boshqariladigan yuridik shaxslardir. Bu sektorlar milliy hisobchilik tizimidagi muhim bo‘limlardir va moliyaviy statistika uchun ma’lumotlarni yig’ishda muhim rol o‘ynaydilar.

Milliy hisobchilik tizimi asosiy hisoblar aksariyatida quyidagilar kiritiladi:

1. Aktivlar: kompaniyaning mal va xizmatlari, depozitlar, moliyalashtirish huquqlari va boshqalar.

2. Qarzlar: kompaniyaning qarzlarining miqdori, shakli va to‘lov muddatlari.

3. Kapital: kompaniya egasi yoki aktsiyadorlarning jalb etgan mablag’lari.

4. Daromad: savdo daromadi, xizmat daromadi va boshqalar.

5. Xarajatlar: operatsion xarajatlar, ishga tortish xarajatlari, moliyaviy xarajatlar va boshqa turlari.

6. To‘lovlar: sotuv tulovlari, daromad tulovlari, soliq tulovlari va boshqalar.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytib o‘tish kerakki, milliy hisoblar tizimi schotlar tizimi davlat miqyosida, nafaqat davlat, balki butun jahon miqyosida muhim ahamiyatga egadir. Uning yordamida iqtisodiy faoliyat natijalarini makrodarajada qayd etish va ularni tahlil qilish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 103 b.;

2. An Introduction to Accounting Theory, 1st edition. 2016, UWS, Australia. (darslik);

3. Dusmuratov R.D. Teoriya Buxgalterskogo ucheta. ToshDAU tahririyat-nashriyot bo‘limi, 2012. 340 b.;
4. Dusmuratov R.D. O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» Qonuni (yangi tahriri)ga sharhlar. ToshDAU tahririyat-nashriyot bo‘limi, 2019. 60 b.;
5. John Pugh. Acconting Theory. The University of Tasmaniya, 2010. (darslik);
6. Mejdunarodnыe standartы finansovoy otchetnosti, 2011: izdanie na russkom yazыke. M.: Askeri –ASSA, 2011. -998 s.;
7. Misirov K., Kurbanov Z, Abdibayeva T, Ochilov O. Teoriya buxgalterskogo ucheta / Uchebnoe posobie. –T.: «Iqtisod-moliya», 2018. -198 s.;
8. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A., “BOSHQARUV HISOBI”. “TAFAKKUR” nashriyoti, 2014 yil;
9. R.D.Dusmuratov, B.Y.Menglikulov. Qishloq xo`jaligida buxgalteriya hisobi va statistika asoslari. –T.: «Fan va texnologiya», 2014. -168 b.;
10. Sotivoldiev A., Sotivoldieva D., Shodibekova D. Buxgalterning izohli lug‘ati. T.: «NORMA» – 2010. -278 b.

BUXGALTERIYA BALANSINI TUZISHNING AHAMIYATI.

Qosimova Nilufarxon Chinberdiyevna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti,
“Mutaxassislik, ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar”
kafedrasi o‘qituvchisi.
Olimov Abduvosid Hayotjon o’g’li
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Andijon fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Mazkur tezis buxgalteriya balansining kompaniyaning moliyaviy holatini tahlil qilish va boshqarishdagi o‘rni, shuningdek, balansni to‘g‘ri tuzishning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beradi. Balans kompaniya aktivlari, majburiyatlari va kapitalini ko‘rsatib, moliyaviy qarorlarni qabul qilishda rahbariyat va investorlar uchun asosiy axborot manbai hisoblanadi. Shuningdek, buxgalteriya balansi kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va uning kredit imkoniyatlarini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о роли баланса в анализе и управлении финансовым положением предприятия, а также о важности правильного составления баланса. Балансовый отчет показывает